

Ixtisoslik shifri: 10.00.11 - Til nazariyasi.

Amaliy va kompyuter lingvistikasi.

**RAQAMLI MEDIA VA IJTIMOY TARMOQLAR TA'SIRIDA
SHAKLLANGAN SO'ZLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI**

Matkarimova Ashurxon Ismoilovna

Andijon davlat chet tillar instituti
“Ingliz tili amaliyoti” kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Parpiyeva Durdonaxon Baxtiyarovna

Andijon davlat tibbiyot instituti
“O'zbek tili, adabiyoti va tillar kafedrasida”
mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli media va ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy o'zbek tiliga ta'siri, ayniqsa yangi so'zlar va atamalar shakllanishidagi o'rni o'rganiladi. Internet muhitida tez-tez uchraydigan neologizmlar, qisqartmalar, so'z yasash tendensiyalari, inglizcha so'zlarning o'zlashtirilishi va ularning leksikografik tasnifi yoritiladi. Bunday so'zlarning lug'atga kiritilishi, ularning normallasuvi va til me'yorlariga mosligi tahlil qilinadi. Maqolada ayrim yangi so'zlar misolida ularning semantikasi, grammatik shakllanishi va stilistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida raqamli media vositalari tilning boyishiga xizmat qilayotgan bo'lsa-da, leksik tizimda muayyan chalkashliklarni keltirib chiqarayotgani aniqlanadi.

Kalit so'zlar: raqamli media, ijtimoiy tarmoqlar, leksikografiya, neologizm, yangi so'zlar, zamonaviy til, o'zlashtirish, tahlil.

XXI asr — axborot texnologiyalari va raqamli aloqa asridir. Internet, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar, bugungi kunda inson hayotining ajralmas bir qismiga aylangan. Shunga monand tarzda, tilda ham yangi hodisalar — so'zlar, iboralar, atamalar paydo bo'lmoqda. Bu so'zlar aksariyat hollarda zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali

ommalashadi. Natijada o'zbek tilida ilgari mavjud bo'lmagan yangi leksik birliklar kirib kelmoqda. Ularning ba'zilar vaqtinchalik hodisa bo'lsa-da, boshqalari doimiy asosda tilimizga singib bormoqda. Ushbu maqolada raqamli media va ijtimoiy tarmoqlarning zamonaviy tilga ta'siri, ayniqsa yangi leksik birliklarning shakllanishi va ularning leksikografik talqini o'rganiladi.

Bu davr o'zining texnikaviy yuksalishi, axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi, raqamli vositalarning hayotimizda tutgan o'rnining kengayishi bilan insoniyat tarixidagi boshqa davrlardan keskin farq qiladi.

Shu boisdan ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Global axborot makonida o'quvchining e'tiborini jalb qilish, uni faol va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish ancha murakkab vazifaga aylangan. Chunki hozirgi yoshlar ko'plab manbalar va texnologiyalar orasida yashamoqda. O'quv jarayonida ularga faqatgina an'anaviy metodlar orqali ta'sir ko'rsatish qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli, ta'limda zamonaviy, interaktiv, vizual, hamda texnologik vositalardan foydalanish — muqarrar ehtiyojdir.

Bugungi kunda global taraqqiyot jarayoni barcha sohalarda, jumladan ta'lim, fan, madaniyat va iqtisodiyotda tezlik va samaradorlikni talab qilmoqda. Bu jarayonning ajralmas qismi sifatida texnologiyalar, kompyuter tizimlari va sun'iy intellekt keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, kompyuter lingvistikasi va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari tilni o'rganish, tarjima qilish, tahrir jarayonlarida yangi bosqichni boshlab berdi.

Kompyuter lingvistikasi — bu til va texnologiya kesishmasida joylashgan, inson tili bilan kompyuter o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydigan fan yo'nalishidir. Ushbu yo'nalish orqali o'zbek tilining zamonaviy raqamli vositalarga integratsiyasi, avtomatik tarjima tizimlari, nutqni aniqlovchi dasturlar, sun'iy intellekt asosida ishlaydigan ta'lim platformalari yaratilmoqda. Bu esa o'zbek tilining jahon miqyosida tan olinishi, global axborot maydoniga chiqishi uchun keng yo'l ochadi.¹

¹ Hakimov G'. H. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2004. — 280 b.

Ayni vaqtda, dunyo miqyosida integratsiya jarayoni tobora kuchayib bormoqda. Har bir milliy til, xususan o'zbek tili ham, bu jarayonda o'z o'rnini topishi uchun texnologik tayyorgarlikka ega bo'lishi zarur. Tilning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga moslashuvi — uning xalqaro miqyosdagi nufuzi va istiqbolini belgilovchi muhim mezon hisoblanadi.

Kompyuter dasturlari va sun'iy intellekt yordamida yaratilayotgan axborot-kompyuter uslubi — bu turli millat vakillarini birlashtiruvchi vosita, tarjima va kommunikatsiyani tez va sifatli amalga oshirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmdir. Shuningdek, ushbu uslub inson tafakkurining mahsuli bo'lgan fan, texnika va madaniyat yutuqlarini xalqlar o'rtasida tez tarqatish, ularni ommalashtirish imkonini beradi.

Shuni ham aytish joizki, hozirgi kunda leksikografiya nafaqat amaliy vazifalarni bajaradi, balki axborot-kognitiv va metodologik muammolarni hal qilish orqali ham o'z ahamiyatini oshirmoqda. Bugungi lug'atshunoslik sohasi axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, kompyuter lingvistikasi, amaliy ilmiy tajriba, umumiy va pedagogik lingvistika bilan integratsiyalashgan. Lug'atshunoslikning asosiy e'tibor markazida esa so'zning barcha xususiyatlari va o'zaro munosabatlarini o'rganish turadi. Shunga qaramay, so'z boshqa lingvistik fanlar doirasida – fonologiya, so'z yasalishi, morfologiya hamda sintaksisda ham o'rganiladi.

Bugungi kunda leksikografiyada eng dolzarb masalalardan biri bu – til o'rganuvchilar uchun so'zning mukammal lug'aviy tavsifini yaratish zaruratidir. Hausman aytganidek, "Ikki tilli lug'atlar ko'pincha faqat so'zning ekvivalentini beradi, ammo murakkab matnlarni tushunishga kam yordam beradi. Bir tilli lug'atlar esa oddiy izohlar berish o'rniga yangi savollar tug'diradi, chunki ular ko'pincha tarjima qilinayotgan matn kabi tushunarsiz bo'ladi".

Bu fikrlar lug'atlardagi sarlavha birliklarini sintagmatik bog'lanishlar, grammatik, uslubiy va sintaktik xususiyatlar bilan birga yoritish zarurligini ko'rsatib turibdi. Bundan tashqari, til o'rganish jarayoni o'quv maqsadlariga mos keladigan til birliklarini o'ziga xos yondashuv bilan tavsiflashni talab qiladi.

Rivojlanish darajasi qanday bo'lsin, insoniyat jamiyatda axborot texnologiyalarining o'ta muhim o'rin tutishini anglab yetdi. Inson faoliyatining barcha jabhalarida kompyuter texnologiyalarini qo'llash zamonaviy jamiyat oldidagi asosiy vazifalardan biri bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning muhim omiliga aylangan. Jamiyatni kompyuterlashtirmasdan turib, ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish yoki fuqarolar uchun munosib hayot darajasini ta'minlash qiyin kechadi. Informatika sohasi ham aynan shunday ehtiyojlar asosida shakllangan.

Tilshunoslikda esa neologizmlar — ya'ni tilda yangi paydo bo'lgan so'zlar yoki iboralar — muhim o'ringa ega. Bunday birliklar, asosan, jamiyatda yuz berayotgan yangi ijtimoiy, texnologik va madaniy o'zgarishlarga javoban yuzaga keladi hamda til tizimining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Neologizmlarning shakllanishi va keng tarqalishi aynan zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik jarayonlar bilan bevosita bog'liq.

Garchi bu yangi so'zlar tilshunoslikda o'rganilgan bo'lsa-da, ularni lug'atlarda qayd etish — ya'ni leksikografik jihatdan hujjatlashtirish — murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda yangi so'zlarning mavjud til tizimiga qanday moslashishi, ularning qanday kontekstlarda ishlatilishi va jamoatchilik tomonidan qanday qabul qilinishi kabi masalalar muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy leksikografiya endilikda faqat an'anaviy usullarga tayanmay, balki yangi texnologiyalar yordamida ham yangi so'zlarni aniqlab, rasmiylashtirishda faol ishlamoqda. Ayniqsa, raqamli leksikografiya bugungi kunda neologizmlarni tez aniqlash va lug'atlarga kiritishda asosiy vositaga aylangan. Internetdagi ma'lumotlar bazalari, ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchi fikrlari va izohlar orqali yangi so'zlarning paydo bo'lishi aniqlanishi mumkin. Masalan, Google Ngram Viewer kabi texnologiyalar so'zlarning ishlatilish tendensiyalarini kuzatish imkonini beradi. Bunday vositalar leksikograflarga yangi so'zlar haqida aniq, tezkor va samarali ma'lumot to'plashga yordam beradi.

Neologizmlarni rasmiylashtirishda qo'llaniladigan usullar va yondashuvlar tobora takomillashib bormoqda. An'anaviy leksikografiya yangi so'zlarning ommalashuvi va

til tizimiga moslashuvini asos qilib olgan bo'lsa, hozirgi davrda bu jarayon zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt va raqamli platformalar orqali yanada tez va samarali amalga oshirilmoqda. Internet manbalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi paydo bo'layotgan so'zlarni aniqlash va ularni lug'atga kiritish imkoniyatlari ancha kengaydi.

Neologizmlar ko'pincha madaniy va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ular jamiyatdagi yangi voqeliklar va tendentsiyalarni ifodalovchi til birliklari bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, bunday so'zlarni leksikografik qayd etishda ularning nafaqat ma'nosi, balki qanday kontekstda qo'llanilishi, kelib chiqish manbai va ijtimoiy ahamiyati ham inobatga olinishi zarur.

Kelajakda neologizmlarni aniqlash va rasmiylashtirish jarayoni yanada ochiq, interaktiv va zamonaviy texnologiyalarga tayanadigan bo'ladi. Bu esa leksikografiya rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, tilning boyishiga sezilarli hissa qo'shadi.²

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, xususan kompyuter lingvistikasi — o'zbek tilining rivoji va uni jahon tillari qatorida e'tirof etilishida muhim vosita hisoblanadi. Til va texnologiya uyg'unligida ta'lim, madaniyat va ilm-fan taraqqiy etadi. Demak, raqamli asrda tilning raqamli ifodasini yaratish — bu nafaqat ilmiy, balki milliy rivojlanish va mustaqillikning ham ajralmas tarkibiy qismidir.

Raqamli muhitda tez-tez uchraydigan so'zlardan ba'zilar quyidagilardir:

- like qilish – yoqtirish, baholash (Facebook, Instagram kontekstida)
- post joylashtirmoq – ijtimoiy tarmoqqa xabar joylashtirish
- screenshot – ekran tasviri
- subscribe qilmoq – obuna bo'lish
- blogger, vlogger, streamer kabi kasb va faoliyat nomlari

Bu so'zlar aksariyat hollarda ingliz tilidan to'g'ridan-to'g'ri yoki fonetik-morfologik o'zgarishlar bilan o'zbek tiliga kirib kelmoqda.

² Tohirova D. O'zbek tilida neologizmlarning shakllanish manbalari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 146 b.

Raqamli texnologiyalar vositasida o‘zbek tiliga yangi so‘zlarning kirib kelishi, zamonaviy va tez o‘zgarayotgan dunyoda tilning dolzarbligini saqlab qolishda muhim o‘rin tutadi. Texnologiyalar sur‘at bilan rivojlanar ekan, yangi tushuncha, mahsulot va jarayonlar yuzaga kelmoqda va ularni aniq ifodalash uchun yangi atamalarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu neologizmlarni o‘zbek tiliga moslashtirish orqali zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar va raqamli tendentsiyalar bo‘yicha samarali muloqot qilish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, raqamli lug‘atlarning o‘zbek tiliga joriy qilinishi an‘anaviy til me‘yorlari bilan bugungi raqamli muhit o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishda muhim vositaga aylanmoqda. Bu holat foydalanuvchilarga raqamli platformalar, xizmatlar va texnologiyalarni samaraliroq o‘zlashtirish va ulardan foydalanishda katta qulaylik yaratadi. Natijada, raqamli savodxonlik ortadi, til esa yanada boyib boradi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar orqali o‘zbek tiliga yangi so‘zlarning kirib kelishi, muloqot vositasi sifatida tilning moslashuvchanligini ta‘minlab, uni raqamli davr talablari bilan uyg‘unlashtiradi.

Yangi so‘zlarni leksikografik jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

- Fonetik moslashtirish: “screenshot” – asl inglizcha screenshot so‘zining o‘zbekchasiga moslashtirilgan shakli.
- Ma‘nodosh tarjima asosida: “obuna bo‘lmoq” – subscribe ning tarjima asosida olingan shakli.
- So‘z yasash asosida: “like qilmoq”, “postlash”, “storik qo‘ymoq” kabi so‘zlar.

Raqamli muhitdan kirib kelgan so‘zlarning barchasi ham adabiy til normalariga to‘liq mos kelavermaydi. Shuning uchun lug‘atshunoslar oldida ularni normallashtirish, ya‘ni lug‘atlarga qanday shaklda kiritish, rasmiy hujjatlar va darsliklarda qo‘llash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, “like qilmoq” o‘rniga “yoqtirish”, “storik” o‘rniga “hikoya”, “post” o‘rniga “xabar” kabi o‘zbekcha muqobillarni joriy etish mumkin.

Raqamli texnologiyalar bilan bog'liq atamalarni o'zbek tiliga kiritish an'anaviy til me'yorlari bilan raqamli muhit o'rtasidagi tafovutni kamaytirishga xizmat qiladi. Bu yangi so'zlar foydalanuvchilarga raqamli platformalar, vositalar va xizmatlardan samarali foydalanish imkonini berib, ularning texnologik bilimlari va aloqa salohiyatini oshiradi. Umuman olganda, raqamli texnologiyalar asosida yuzaga kelayotgan neologizmlar o'zbek tilini boyitadi, muloqotning o'zgaruvchan xususiyatini aks ettiradi va tilning raqamli dunyodagi dolzarbligini ta'minlaydi.

Yangi raqamli so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishi zamonaviy dunyoda bir nechta muhim sabablar bilan izohlanadi:

Samarali muloqot imkoniyati: Raqamli texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha sohalariga kirib kelayotgan bir paytda, bu sohalar bilan bog'liq terminlarning o'zbek tilida mavjud bo'lishi samarali va aniq muloqotni ta'minlaydi. Bu shaxsiy va ishbilarmonlik sohalarida teng muloqot yuritish uchun zarurdir.

Madaniy merosni asrash: Raqamli atamalarni o'zbek tilida ifodalash, globallashtirish bosimiga qaramay, milliy til va madaniyatning o'ziga xosligini saqlashga xizmat qiladi. Bu jarayon yangi tushunchalarni ona tilida muhokama qilish imkonini yaratadi.

Ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish: Texnologik atamalarni o'zbek tiliga joriy qilish o'quvchilarga murakkab raqamli tushunchalarni o'z tilida o'rganishga yordam beradi. Bu esa raqamli savodxonlikni oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Innovatsiyalarni rag'batlantirish: Texnologik so'zlarni o'zlashtirish orqali o'zbek tili zamonaviy ilm-fan va texnologiyalar bilan hamnafas bo'lib, til hamjamiyatida yangilik yaratish, ijodkorlik va ilg'or fikrlarni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Raqamli inklyuzivlikni kuchaytirish: Raqamli atamalarni o'zbek tiliga kiritish orqali, ushbu tilda so'zlashuvchilarga raqamli dunyoda to'laqonli ishtirok etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa global raqamli jamiyatlar bilan samarali muloqotga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli media va ijtimoiy tarmoqlar ta'sirida shakllanayotgan yangi so'zlar zamonaviy o'zbek tilining leksik tizimiga faol kirib bormoqda. Bu so'zlar bir tomondan tilni boyitayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, adabiy til me'yorlarining buzilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli bunday leksik birliklarni o'rganish, ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash, ma'no va shakl jihatidan tahlil qilish, eng muhimi — lug'atlarga kiritish yoki ularning o'rniga adabiy tildagi muqobillarni ishlab chiqish muhim masalalardan biridir. Tilshunoslar, lug'at tuzuvchilar va pedagoglar bu borada o'zaro hamkorlikda harakat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hakimov G'.H. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. – 280 b.
2. To'xtaxo'jayev M. Til va jamiyat. – Toshkent: Fan, 2005. – 212 b.
3. Mamatov Z. Internet tili va uning o'zbek tiliga ta'siri. // O'zbek tili va adabiyoti. – 2019. – №3. – B. 37–42.
4. Xaitov A.X., Tursunova M.Yu. Ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan yangi leksik birliklar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2022. – 96 b.
5. Tohirova D. O'zbek tilida neologizmlarning shakllanish manbalari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 146 b.
6. Usmonov B. Internet kommunikatsiyasi va yangi so'zlar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – 134 b.